



Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies



Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024  
2025  
2026

YANVAR  
FEVRAL  
MART

Faoliyatning  
asosiy  
ko'rsatkichlari

## Mundarija

2024-yil uchun nominal (NEER) va real samarali almashuv kursi (REER) indekslari hisoblab chiqildi .....	2
2025-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun taklif etilgan ijara narxlari tahlil qilindi .....	3
2025-yilning fevral oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi.....	5
2025-yilning yanvar oyida ikkilamchi bozordagi avtomobillar narxi tahlil etildi .....	6
O'zbekiston mahsulotlari uchun potensial eksport bozorlari va buyurtmachilar talabi o'rganildi.....	8
Toshkent shahrida ko'p qavatli uy-joylarga investitsiyalarning daromadliligi tahlil qilindi .....	10
Oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati mazkur oila farzandlarining akademik natijalariga qanday ta'sir qilishi o'rganildi .....	12
Ichki turizmning rivojlanishini baholashga qaratilgan oflays so'rov o'tkazildi.....	14



**Izoh:** 2024-yilda O'zbekiston uchun NEER va REER indekslarini hisoblashda savdo hamkorlarimiz sifatida O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida 83 foiz hissaga ega bo'lgan 20 ta mamlakat, bazaviy davr sifatida 2019-yilning yanvar oyi tanlab olindi.

2024-yilda O'zbekistonda real samarali almashuv kursi indeksi ko'tarildi. Xususan, 2024-yilning dekabr oyida REER indeksi 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,8 bandga (106,6 dan 111,4 ga) ko'tarildi. Bunda, so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi o'zgarishi ta'siri 3,3 band bo'lgan bo'lsa, inflatsiyaning ta'siri 1,5 bandni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, 2024-yilning dastlabki 9 oyida REER indeksi 104,1 va 105,7 oralig'ida shakllangan bo'lsa, IV chorak yakuniga kelib III chorak yakuniga nisbatan 6,6 bandga oshdi.

2024-yilda nominal samarali almashuv kursi 4,1 bandga (90,0 dan 94,1 ga) o'sdi.

**Izoh:** Iqtisodiyotda real samarali almashuv kursining ko'tarilishi, boshqa omillar o'zgarmas deb qaralganda, eksport narxlarining qimmatlashishi va import narxlarining arzonlashishiga olib kelishi mumkin.

2024-yilda REER indeksining oshishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida asosiy savdo hamkor davlatlar milliy valyutalarining AQSh dollarga nisbatan qadrsizlanishi o'zbek so'mi qadrsizlanishiga nisbatan yuqori ekanligini keltirish mumkin.

**Ma'lumot uchun:** 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida so'mning AQSh dollarga nisbatan nominal kursi 3,8 foizga qadrsizlangan bo'lsa, Rossiya rubli 16,8 foizga, Qozog'iston tengesi 15,5 foizdan ko'proqqa va turk lirasi deyarli 16,6 foizga qadrsizlandi. Bu o'z navbatida, REER indeksining 3,3 bandga o'sishiga ta'sir o'tkazdi.

Shuningdek, 2024-yilda O'zbekistondagi narxlar darajasi dinamikasi va asosiy savdo hamkorlarimizdagi makroiqtisodiy tendensiyalar orasida farqlarning yuzaga kelishi REER indeksining o'sishiga ta'sir etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2024-yilda O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 9,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Rossiyada 9,5 foizga, Qozog'istonda 8,6 foizga va Xitoyda 0,2 foizga teng bo'ldi. Inflyatsiya omilining REER indeksiga ta'siri 1,5 bandni tashkil etdi.



Mazkur davrda poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari dekabr oyidagiga nisbatan 0,1 foizga, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun esa 0,3 foizga arzonlashdi.

### O'rtacha ta'mirlangan uy-joylar ijarasi.

2024-yilning yanvar oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali va 2 xonali xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxi dekabr oyidagiga nisbatan mos ravishda 0,3 foiz va 0,4 foizga pasaygan bo'lsa, 3 xonali va 4 xonali xonadonlar uchun mos ravishda 0,1 foizga va 0,3 foizga ko'tarilgan.

### O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun taklif etilgan nisbatan arzon ijara narxlari:

- Sergeli tumani (1 xonali - 297 AQSh dollari, 2 xonali - 355 AQSh dollari, 3 xonali - 415 AQSh dollari, 4 xonali - 419 AQSh dollari);
- Olmazor tumani (1 xonali - 293 AQSh dollari, 2 xonali - 352 AQSh dollari, 3 xonali - 419 AQSh dollari, 4 xonali - 493 AQSh dollari).

Nisbatan qimmat ijara narxlari:

- Mirobod tumani (1 xonali - 344 AQSh dollari, 2 xonali - 512 AQSh dollari, 3 xonali - 643 AQSh dollari, 4 xonali - 705 AQSh dollari);
- Yakkasaroy tumani (1 xonali - 383 AQSh dollari, 2 xonali - 487 AQSh dollari, 3 xonali - 677 AQSh dollari, 4 xonali - 722 AQSh dollari).

### To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasi.

Mazkur davrda to'liq ta'mirlangan 1 va 3 xonali xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxi 0,5 foizga, 2 xonalilar uchun 0,7 foizga pasaygan bo'lsa, 4 xonali xonadonlar uchun 0,5 foizga oshgan.

### To'liq ta'mirlangan uy-joylar uchun taklif etilgan nisbatan arzon ijara narxlari.

- Sergeli tumani (1 xonali - 321 AQSh dollari, 2 xonali - 417 AQSh dollari, 3 xonali - 513 AQSh dollari, 4 xonali - 641 AQSh dollari);
- Uchtepa tumani (1 xonali - 386 AQSh dollari, 2 xonali - 450 AQSh dollari, 3 xonali - 534 AQSh dollari, 4 xonali - 624 AQSh dollari).

Nisbatan qimmat ijara narxlari:

- Mirobod tumani (1 xonali - 485 AQSh dollari, 2 xonali - 731 AQSh dollari, 3 xonali - 1027 AQSh dollari, 4 xonali - 1328 AQSh dollari);
- Shayxontohur tumani (1 xonali - 521 AQSh dollari, 2 xonali - 732 AQSh dollari, 3 xonali - 1093 AQSh dollari, 4 xonali - 1381 AQSh dollari).

*Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb-skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning dekabr oyi uchun 35,3 mingta va 2025-yilning yanvar oyi uchun 35,7 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlari chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirildi.*



O'rta ta'mirlangan

To'liq ta'mirlangan


2025-yil Yanvar



2024-yil Dekabr



Ijara narxlari darajasi





2025-yilning fevral oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqt  
44 soniya

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2025-yilning fevral oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishini ko'rib chiqdi.

Monitoring natijalari 6 nomdagagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi\*.


Shunday qilib, kartoshkaning minimal narxi 26,1 foiz, qizil sabziniki 11,3 foiz, lavlaginiki 8,2 foiz, tuxumniki 7,8 foiz, sutniki 0,9 foiz, shakarniki 0,4 foiz pasaygan. O'tgan oyda kartoshka narxi oshganidan keyin Pokistondan kartoshka import qilindi va bu uning narxi pasayishiga olib keldi.

8 nomdagagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar oshgan. Ayniqsa, oqbosh karam narxida eng katta o'sish qayd etildi. Bu mavsumiy omil bilan bog'liq.

Bodring narxi ham sezilarli darajada oshgan, ammo o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 30,0 foiz arzon.

7 nomdagagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Bular - bug'doy uni, guruch, grechka, makaron, olma, banan, tovuq go'shti (file).

\*tahlil 2025-y. 9-yanvar va 6-fevral kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshirildi.





## Mahalliy ommabop avtomobillar narxi.

Joriy yilning yanvar oyida mahalliy ommabop avtomobillar narxi 2024-yilning dekabr oyidagiga nisbatan arzonlashdi. Xususan:

- «Onix»: kam foydalanilgan - 2,4%ga (\$14 350 dan \$14 000 ga), ko'p foydalanilgan - 1,5%ga (\$13 000 dan \$12 800 ga);
- «Lacetti»: kam foydalanilgan - 0,7%ga (\$15 000 dan \$14 900 ga), o'rtacha foydalanilgan - 1,4%ga (\$14 500 dan \$14 300 ga), ko'p foydalanilgan - 1,7%ga (\$13 327 dan \$13 095 ga);
- »Cobalt»: kam foydalanilgan - 1,4%ga (\$12 901 dan \$12 725 ga), o'rtacha foydalanilgan - 2,4%ga (\$12 300 dan \$12 000 ga), ko'p foydalanilgan - 1,7%ga (\$11 700 dan \$11 500 ga);
- "Nexia": o'rtacha foydalanilgan - 1,8%ga (\$11 400 dan \$11 200 ga); ko'p foydalanilgan - (\$10 500 dan \$10 465 ga);
- «Spark»: o'rtacha foydalanilgan - 1%ga (\$10 300 dan \$10 200 ga), ko'p foydalanilgan - 1,1%ga (\$9 300 dan \$9 200 ga);
- «Damas»: kam foydalanilgan - 0,5%ga (\$8 135 dan \$8 098 ga), o'rtacha foydalanilgan - 1,4%ga (\$8 000 dan \$7 886 ga), ko'p foydalanilgan - 4,1%ga (\$7 300 dan \$7 000 ga) arzonlashgan.

## Mahalliy lyuks avtomobillar narxi.

Kam foydalanilgan «Equinox» va «Malibu» avtomobilaring o'rtacha narxlarida oshish kuzatilgan bo'lsa-da, o'rtacha va ko'p foydalaniganlari uchun narxlar arzonlashishda davom etdi. Xususan:

- «Malibu»: o'rtacha foydalanilgan - 2,1%ga (\$29 100 dan \$28 500 ga), ko'p foydalanilgan - 1,6%ga (\$25 000 dan \$24 600 ga) arzonlagen bo'lsa, kam foydalanilgan uchun o'rtacha narx 1,2%ga (\$29 650 dan \$30 000 ga) oshdi;

«Equinox»: o'rtacha foydalanilgan - 1,6%ga (\$30 500 dan \$30 000 ga) arzonlab, ko'p foydalanigani uchun o'rtacha narx (\$26 500) o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, kam foydalanigani 0,9%ga (\$34 000 dan \$34 308 ga) oshgan;

- «Tracker»: kam foydalanilgan - 1,6%ga (\$18 700 dan \$18 403 ga), o'rtacha foydalanilgan - 2,3%ga (\$17 700 dan \$17 300 ga), ko'p foydalanilgan - 2,9%ga (\$17 000 dan \$16 500 ga) arzonlashgan.

## Elektromobillar narxi.

Mazkur davrda ko'p foydalanilgan BYD «E2» (\$15 250) va «Yuan Up» (\$20 000) elektromobillari narxi o'zgarmagan bo'lsa, boshqa elektromobillar o'rtacha narxlarida arzonlash kuzatildi:

- BYD «E2»: yangi - 1,8%ga (\$17 100 dan \$16 800 ga), o'rtacha foydalanilgan - 2,9%ga (\$15 970 dan \$15 500 ga);
- BYD «Han»: yangi - 0,9%ga (\$32 500 dan \$32 200 ga), ko'p foydalanilgan - 2,9%ga (\$31 750 dan \$31 250 ga);
- BYD «Song Plus DM-i Champion»: yangi - 0,3%ga (\$29 100 dan \$29 000 ga), o'rtacha foydalanilgan - 1,1%ga (\$27 200 dan \$26 900 ga), ko'p foydalanilgan - 2,8%ga (\$24 999 dan \$24 300 ga);
- BYD «Song Plus EV Champion»: yangi - 1,4%ga (\$28 500 dan \$28 090 ga), o'rtacha foydalanilgan - 3,6%ga (\$26 600 dan \$25 650 ga), ko'p foydalanilgan - 2,9%ga (\$24 050 dan \$23 350 ga).

## Xorijiy avtomobillar narxi.


- »Elantra»: o'rtacha foydalanilgan - 2,3%ga (\$21 500 dan \$21 000 ga); ko'p foydalanilgan - 4,8%ga (\$21 000 dan \$19 995 ga);

- «Tucson»: kam foydalanilgan - 1,5%ga (\$33 500 dan \$33 000 ga), o'rtacha foydalanilgan - 0,8%ga (\$31 750 dan \$31 500 ga); ko'p foydalanilgan - 2,0%ga (\$25 500 dan \$25 000 ga);
- «Sportage»: kam foydalanilgan - 1,4%ga (\$29 000 dan \$28 600 ga), o'rtacha foydalanilgan - 1,8%ga (\$27 500 dan \$27 000 ga);
- «Seltos»: ko'p foydalanilgan - 2,1%ga (\$23 500 dan \$23 000 ga) arzonlagen.


Avtomobilarni bosib o'tgan masofasi hamda ishlab chiqarilgan yiliga ko'ra guruhlarga ajratish bo'yicha batafsil ma'lumot olish uchun avvalgi tahlillarga qarang.

Avtomobillar narxini tahlil qilishda ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Ma'lumotlar saralab olingandan so'ng, dekabr oyi uchun 18,7 mingta, yanvar oyi uchun 16,5 mingta ma'lumotdan foydalanildi.

## Mahalliy ommabop avtomobillar



## Mahalliy lyuks avtomobillar





O'zbekiston nisbiy ustunlikka ega bo'lgan mahsulotlar (nisbiy ustunlik indeksi 1 dan yuqori) uchun quyidagi potensial bozorlar va yetkazib berishi mumkin bo'lgan hududlar aniqlandi:

### Meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlar.

Hududlar - Surxondaryo, Xorazm, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari  
Potensial bozorlar - Hindiston, BAA, Buyuk Britaniya, AQSh, Malayziya va Singapur

### Ip-gazlama, kiyimlar, kimyoviy tola va teri mahsulotlari.

Hududlar - Namangan, Qashqadaryo, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi

Potensial bozorlar - Ispaniya va Indoneziya

### O'g'itlar, kimyoviy mahsulotlar, un va kraxmal.

Hududlar - Farg'ona, Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri

Potensial bozorlar - Xitoy, Malayziya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Shri Lanka

### Qimmatbaho toshlar va metallar, rux va mis mahsulotlari.

Hududlar - Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri

Potensial bozorlar - AQSh, Yaponiya, BAA, Koreya Respublikasi, Tailand, Xitoy, Hindiston, Vyetnam

Mazkur mahsulotlar buyurtmachilarining 73 foizi mahsulotni ishlab chiqarish, sug'ortalash va yetkazib berish xarajatlari sotuvchining zimmasiga yuklatilish talabini qo'yishgan (CIF).

Xaridorlarning 61 foizi to'lov shakli sifatida akkreditivni (LC - Letter of Credit), 16 foizi bank orqali to'g'ridan-to'g'ri o'tkazmalarini, 11 foizi telegrafik pul o'tkazmasini (TT - Telegraphic Transfer) afzal ko'rishadi.


**Izoh:** Akkreditiv xalqaro savdoda risk darajasi kichik bo'lgan eng ishonchli to'lov shakli hisoblanadi.

Buyurtmachilarning 81 foizi uchun mahsulotni yetkazib beruvchi korxona qaysi mamlakatdan ekanligining ahamiyati yo'q va ushbu bozorlarga o'zbekistonlik tadbirkorlar ham kirib borish imkoniyatiga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, hududlarda transport va eksport infratuzilmasining ushbu potensial bozorlarga chiqish uchun moslashtirilishi, eksportchi korxonalarga yaqindan konsultativ va moliyaviy ko'mak berilishi eksport ko'lamining oshishi, samaradorlikning yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning jadallashishi, aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

*Tadqiqotda respublika va uning hududlari uchun nisbiy ustunlik indeksi (RCA - Revealed Comparative Advantage) hisoblab chiqilgach, O'zbekiston eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan mahsulotlar hamda ularni eksport qilishi mumkin bo'lgan viloyatlar aniqlandi. Tahlillarda www.go4worldbusiness.com veb-sahifasidan 2024-yilning oktyabr-dekabr oylari uchun veb-skreping (web-scraping) orqali to'plangan 16 340 ta buyurtmachining ma'lumotlari hamda Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi.*

# O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI





**Uy-joyga investitsiya qilish** – faqat ko'chmas mulkka egalik qilish emas, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va daromad olishning ishonchli manbalaridan bo'lib kelgan.

Ushbu investitsiyaning asosiy mohiyati mulkning 2 xil daromad manbai orqali foyda keltirishida namoyon bo'ladi:

1. Ijaraga berishdan olinadigan daromad;
2. Vaqt o'tishi bilan mulk qiymatining o'zgarishi orqali keladigan kapital foyda (zarar).

Ushbu ikki manba birgalikda nafaqat daromad keltiradi, balki investorga bozordagi o'zgarishlarga moslashish imkonini ham beradi.

Toshkent shahrida uy-joyga investitsiyalarning daromadliligi tushib bormoqda. Xususan, joriy yilning yanvar oyida poytaxtda ko'p qavatlari uy-joylarga investitsiyalarning daromadliligi 2024-yilning fevral oyidagi o'rtacha 32,4%dan 7,6%gacha sekinlashdi.

Mazkur davrda ko'p qavatlari uy-joyga investitsiyalarning daromadliligi joylashgan hududi va xonalari soniga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi:

- 1 xonali: Mirobod – -1,7% (2024-yil fevral – 53,0 %), Bektemir – 54,3% (46,8 %);
- 2 xonali: Uchtepa – 2,6% (27,0 %), Yakkasaroy – 15,1% (24,2 %);
- 3 xonali: Bektemir – -5,5% (33,7 %), Yakkasaroy – 10,4% (22,8 %);
- 4 xonali: Bektemir – -7,3% (37,9 %), Chilonzor – 16,5% (19,8 %).

### **Uy-joylar narxi o'zgarishidan olinadigan daromad.**

2024-yil fevral oyida uy-joy va ijara narxlarining nisbatan ko'tarilishi (tushishi) hisobiga olinishi mumkin bo'lgan foyda Yakkasaroy, Bektemir va Chilonzor tumanlarida mos ravishda o'rtacha 16,1%ni, 26,9%ni va 15,4%ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yanvar oyida ushbu ko'rsatkichlar 3,0%, 2,8% va 0,3%gacha pasaydi. Shuningdek, Toshkent shahrida uy-joylar narxining o'sishdan deyarli to'xtashi va biroz arzonlashishi natijasida joriy yilning yanvar oyida uy-joylar narxi o'zgarishidan olinadigan o'rtacha daromad Shayxontohur (35,8 %dan -0,8 %ga) va Yunusobod (30,4 %dan -3,4 %ga) tumanlarida sezilarli darajada pasaygani kuzatildi.

### **Uy-joylarni ijaraga berishdan olinadigan daromad.**


Joriy yilning yanvar oyida uy-joylar ijarasidan olinadigan yillik o'rtacha daromad Mirobod tumanida 10,0%ni (2024-yil fevral oyida – 10,4%), Mirzo Ulug'bek tumanida 9,9%ni (10,6%), Shayxontohur tumanida 9,8%ni (11,6 %) tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich ijara narxlari nisbatan arzonroq bo'lgan tumanlar – Olmazorda 8,9%ni (9,4%), Uchtepada 8,9%ni (8,6%) va Sergelida 8,9%ni (8,4 %) tashkil qildi.

Daromadlilik darajasi bo'yicha investitsion jozibadorligi yuqori hisoblangan 1 va 2 xonali xonadonlardan daromad olish imkoniyatlari ham tushib bormoqda. 2024-yilning fevral oyida 1 va 2 xonali xonadonlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning daromadliligi mos ravishda 35,6%ni va 30,8%ni tashkil etgan bo'lsa, joriy yil yanvar oyida ushbu ko'rsatkich 14,3% va 7,5%gacha tushdi. Mazkur davrda 3 va 4 xonali xonadonlar uchun daromadlilik ko'rsatkichi sezilarli darajada pasaydi (mos ravishda 5,5% (2024-yil fevralida 33,0%) va 2,9% (30,3%)).


2024-yilning yarmidan boshlab uy-joyga investitsiyalar daromadliligi jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlardan olinadigan o'rtacha daromadlilikdan past darajada shakllanib kelmoqda. 2023-2024 yillarda chet el valyutasidagi bank depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 5% atrofida shakllangan bo'lsa, milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha stavkalar 21-22% atrofida o'zgarib turdi.

Rivojlanayotgan davlatlarda aholi jamg'armalarining uy-joyga yo'naltirilishi qisqa muddatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishi mumkin. Ammo, uzoq muddatda kapital bozorini rivojlantirish va aholi uchun diversifikatsiyalangan investitsiya imkoniyatlarini taqdim etish muhim. Shu yo'l bilan aholi jamg'armalari nafaqat saqlanadi, balki milliy iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya qilingach, yanada jadal rivojlanish imkonini beradi.

## Uy-joy narxi o'zgarishi hamda ijara dan olinadigan o'rtacha daromadlilik



## Bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari



Ta'lim va uning sifati iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Inson kapitali nazariyasiga muvofiq, bilim, qobiliyat va ta'lom darajasi inson kapitalidagi muhim omillar bo'lib, o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Becker 1964, Gennaioli v.b. 2012). Tadqiqotchilar iqtisodiy rivojlanishda ta'lom olish uchun sarflangan yillar emas, balki ta'lomning sifati muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi (Angrist v.b 2021). Bu esa o'z navbatida, ta'lom sifatidagi tafovutlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatadi (Piao 2024).

Tadqiqotda O'zbekistonda PISA-2022 so'rovi orqali olingan natijalardan foydalanildi. So'rov mamlakatimizning turli hududlari bo'yicha 15 yoshli o'quvchilarning javoblarini mujassam etgan bo'lib, uning asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasi 202 ta mакtab va 7293 nafar o'quvchini qamrab oladi.

### **MHTI mutaxassislari tadqiqot davomida quyidagi natjalarni oldi:**

1 Uy-xo'jaliklari oilaning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab o'sish tartibida guruhlanganda, yuqori o'nlikda joylashgan oilalarning farzandlari quyi o'nlikdagi oilalarning farzandlariga nisbatan matematika fanidan 43,7 ball, o'qish fanidan 39,8 ball va tabiiy fanlardan 36,7 ball yuqori natija ko'rsatdi.

Repest moduli asosida qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy holat indeksining 1 birlikka yaxshilanishi ballarni matematika fanidan 9,5 ballga, o'qish fanidan 9,2 ballga va tabiiy fanlardan 7,9 ballga yaxshilaydi.

2 Uy vazifalarini bajarmaydigan o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga ko'ra, quyi o'nlikdagi oilalar farzandlarining 6,7 foizini, yuqori o'nlikdagi oilalar farzandlarining esa 3,3 foizini tashkil etadi.

O'quv haftasi davomida haq evaziga mehnat qiladigan 15 yoshli o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga ko'ra, quyi o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining taxminan har uch nafaridan birini, yuqori o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining esa har to'rt nafaridan birini tashkil etadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilarning uy vazifalarini bajarmasligi PISA test sinovi natijalarini оrtacha 16 ballga, haq evaziga mehnat qilish esa 37 ballga kamaytiradi.

3 O'quv haftasi davomida darsdan avval nonushta qilmaydigan o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga ko'ra quyi o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining 13,6 foizini, yuqori o'nlikda joylashgan oilalar farzandlarining esa 9,5 foizini tashkil etadi.

Tahlil davomida o'quvchilarning darsdan oldin nonushta qilmasligi PISA test sinovi natijalarini оrtacha 20 ballga kamaytirishi aniqlandi. Nonushta qilmaslik ko'proq kambag'al oilalarning farzandlariga ta'sir qiladi va ular nonushta qilmaydigan yuqori daromadli oilalarning farzandlariga nisbatan 34 ball kamroq oladi.

### **Takliflar:**

Davlat ta'lom qonunchiligidagi maqsadli ko'rsatkichlarni xalqaro test sinovlari natijalari orqali aniq hamda bir vaqtning o'zida guruuhlar kesimida (yuqori-quyi daromadli oila farzandlari, shahar-qishloq va hokazo) belgilash lozim. Barcha uchun umumiyo bo'lgan ko'rsatkichlar ma'lum bir guruhning yuqori natijasi hisobiga shakllanadi va оrtacha qiymatning oshishi ta'limgagi tafovutning oshishiga olib keladi.

MHTI mutaxassislarining tadqiqoti O'zbekistonda maktablardagi bepul tushlik davomatni 8 foizga oshirishini ko'rsatgandi. Ushbu dalil va yuqoridagi tahlil natjalarni inobatga olgan holda, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar yashaydigan hududlardagi maktablarda sinov tariqasida bepul tushlik hamda nonushta berish tizimini joriy etish hamda ularning samaradorligini aniqlash lozim.

## TA'LIMDAGI TAFOVUTLAR


Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy  
holati o'quvchilarining  
akademik natijalariga  
qanday ta'sir qiladi?



Sinfdan sinfga o'tishdagi ma'lum bir muammolar sabab  
o'quvchilarining akademik natijalari pasaygan.

O'zbekistonlik 4- va 9-sinf o'quvchilarining standartlashtirilgan xalqaro test  
sinovlaridagi natijalari (ball)


TIMSS/PIRLS<sup>2</sup>(4-sinf) PISA<sup>3</sup> (9-sinf)



\*TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study)- bu X'U O' (Xalqaro o'qituvchilar yuushmasi, eng. International Association of Educators) tomonidan har to'rt yilda bir marta o'zakazilgan, 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholaydigan xalqaro test sinovi.  
PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)- bu X'U O' (O'quvchilar yuushmasi, eng. International Association of Educators) tomonidan har besh yilda o'zakazilgan, 4-sinf o'quvchilarining o'qib turishini haqida zavodchi to'monidan baholaydigan shaxer bo'lib emas.  
PISA (Programme for International Student Assessment)- bu IHTT (eng. OECD) tomonidan har uch yilda o'zakazilgan salgano baholash bo'lib, 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlarda bilimlarning, yagona bo'yiklumi real hayotda muammosini hal etishda qiziqarli samarali qo'yishishni tekshiradi.

Kambag'al oilalar farzandlarining taxminan har uch nafaridan  
bittasi maktab haftasida haq evaziga mehnat qiladi.

Ta'limga o'quv natijalaridagi tafovutga sabab bo'luvchi omillarning guruhlar kesimidagi ulushi<sup>4</sup> (%)



<sup>2</sup>Prototipdar PISA 2002 o'quv sinovnomerining ayridagi sarirovligi (ST284 va ST285) asoslanan hisoblangan. ST284 "O'dirdagi mafatlari haftrasi mobaynida mattdaga borishdan avval o'quvchilarning har birini kun davomida barasari?" ST285 "O'dirdagi mafatlari haftrasi mobaynida mattdadan ketgandan keyin o'yindalarini necha kun mobaynida barasari?"

<sup>3</sup>Repekt modulli assosida qilingan ta'lim natijalari. Modul turli vazirlarga ega bo'lgan so'rov natijalarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan.

“

Ta'limga tafovut (yoki notenglik)  
faqat bir o'quvchining matabda  
ta'limga o'quvchilarining yillaridagi tafovut  
bilangina emas, balki olayotgan  
ta'limga sifatidagi tafovut bilan ham  
o'lchanadi.


”

- Nikol' Torpi-Sabo



O'zbekistonda ta'limga o'quvchilarining ijtimoiy-iqtisodiy  
holati o'rtaida salbiy bog'liqlik mavjud.

Uy xo'jaliklari oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab o'sish tartibida guruhlanganda  
turlu guruhdagi oilalar farzandlarining PISA test sinovidagi natijalari\* (ball)



\*Ijtimoiy-iqtisodiy holat - bu o'quvchilarning olalvy resurslarga ya'ni ijtimoiy kapitali (ijtimoiy kapital va madaniy kapital) egalik qilishi va o'quvchi olasining uy xo'jaligining ijtimoiy mavejini qarab olishiga qaratilgan keng qamovilli tushunchasi.

PISA da o'quvchining ijtimoiy-iqtisodiy holat - istiqsaz, jumoy va medony baholining PISA indeksi (ESCI) engal o'lchanadi. ESCS oymati qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy holat shunchalik yuqori bo'lsada. ESCS shaklasining HTT matematikasi bo'yicha o'shasha oymati 0 ga ya'stanet chetmashin i'gli terib.

ESCS - bu uchta tarbiy qondidan olinigan ma'lumatlarini yagona baliga kiratishuvchi murakkab ko'satishchi o'sha o'quvchining eng yuqori ta'limga darajasi; o'sha o'quvchining eng yuqori kazib mavejisi va uy joyi mulki. Har bir o'quvchi uchta urbu uchra komponent bo'yicha ma'lumatni PISA kognitiv baholashdor to'rig'ing o'quvchilar tomonidan to'dirilgan so'rovname orqali to'plangin.



So'rovda barcha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan jami 3172 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 1708 nafarini erkaklar, 1464 nafarini esa ayollar tashkil etidi.

So'rov natijalari mamlakatimizning to'rtta hududi - Samarqand (13,4 foiz), Buxoro (9,6 foiz), Toshkent (10,6 foiz) viloyatlari va Toshkent shahri (16,8 foiz) da ichki turistik oqim eng yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi. Sirdaryo viloyati (1,0 foiz) bu borada eng oxirgi o'rinni egalladi.

Respondentlarning 63,8 foizi yilda bir marotaba, 9,8 foizi har uch oyda bir marotaba, 1,9 foizi oyiga kamida bir marotaba sayohat qilishini qayd etgan bo'lsa, umuman sayohat qilmasligini bildirganlar ulushi 23,4 foizni tashkil etdi.

Mamlakat bo'ylab sayohat qiluvchilar asosan o'z shaxsiy avtomobilidan foydalanishi (34,9 foiz) ma'lum bo'ldi. Ichki sayyoohlarning 27,8 foizi taksini, 12,2 foizi poezdni, 7,3 foizi samolyotni afzal biladi.

Respondentlarning asosiy qismi, aniqrog'i 58,5 foizi tunab qolish uchun mehmon uylarini tanlashini, 10,9 foizi xostellardan, 27,3 foizi mehmonxonalardan, 3,2 foizi chodirlardan foydalanishini qayd etgan.

Sayohatga chiqishingizga nima to'sqinlik qiladi, degan savolga so'rovda qatnashganlarning 36,4 foizi «O'zbekiston bo'ylab sayohatga chiqish uchun hech qanday to'siq yo'q», 9,2 foizi «qaramog'imda parvarishga muhtoj farzandlar va keksalar bor», 0,8 foizi «ichki sayohat o'ziga jalb qilmaydi», deb javob bergan. Respondentlarning 48,1 foizi ichki sayohat hozircha uy xo'jaligining kun tartibida yo'qligini ta'kidlagan.

So'rov natijalari ichki sayyoohlarning kattagina qismi (22,8 foiz) ziyorat maqsadida safarga chiqishini ko'rsatdi. Sayohatchilarning 15,7 foizini madaniy va ma'rifiy turizm, 14,0 foizini oilaviy turizm, 11,0 foizini tog' kurortlari, 9,7 foizini xizmat safarları, 7,5 foizini ta'lim va talabalar turistik almashinuvi, 3,9 foizini ekoturizm, 1,5 foizini ishbilarmonlik turizmi, 1,2 foizini plyaj turizmi, 1,1 foizini sport turizmi, 1,1 foizini agroturizm o'ziga jalb qilishi ma'lum bo'ldi. Ekstremal turizmga qiziqadiganlar ulushi esa bor-yo'g'i 0,5 foizni tashkil etdi.

Respondentlarning aksariyati, ya'ni 61,6 foizi sayohatlar uchun chegirmalar berish, 15,1 foizi parvarishga muhtoj bo'lganlar uchun maxsus ijtimoiy paketlar tashkil qilish, 9,3 foizi sayohat uchun kreditlar berish, 5,1 foizi boshqa sayohat turlarini tashkil e'tish lozimligini ta'kidlagan.

# O'ZBEKİSTONDA İCHKİ TURİZMNING RİVOJLANIŞI

Respublikaning asosan qaysi hududlariiga  
sayohatga borgansiz? (%)



O'zbekiston bo'ylab tez-tez sayohatga  
chiqasizmi? (%)

1 Toshkent shahri	16,8
2 Samarqand viloyati	13,4
3 Toshkent viloyati	10,6
4 Buxoro viloyati	9,6
5 Namangan viloyati	8,3
6 Fargona viloyati	7,6
7 Xorazm viloyati	7,2
8 Qashqadaryo viloyati	6,8

Sayohat  
qilmayman,  
lekin rejamda  
bor

63,8

24,5

9,8

1,9

7,2

6,8

Sayohatni qaysi ko'rinishda  
amalga oshirasiz? (%)



Sizni turizmning asosan qaysi turlari  
o'ziga jalb qiladi? (%)



**Makroiqtisodiy va hududiy tadaqiqotlar instituti**